

ORIFJON KOMILOV

XAYOL RAQSI



SHARH

ORIFJON KOMILOV

XAYOL RAQSI



Orifjon Komilov 1985-yil Samarqand viloyati Urgut tumani Ispanza qshlog'ida tug'ilgan. 2003-2010-yillarda Samarqand davlat tibbiyot instituti pediatriya fakultetida, 2010-2013-yillarda Toshkent tibbiyot akademiyasida "Bolalar yuqumli kasalliklari" mutaxassisligi bo'yicha magistraturada tahsil olgan. Hozirda Samarqand viloyat yuqumli kasalliklar klinik shifoxonasida faoliyat yuritib kelmoqda.

"ADABIYOT"
NASHRIYOTI



BIRINCHI KITOBIM

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих

выдач _____

--	--

22.1
K-64

- 1554 -

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
"UOD" JAMOAT FONDI

ORIFION KOMILOV

ХАҲОЛ РАҚСИ

She'rlar



TOSHKENT
"ADABIYOT" O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
2020 VA ORTA MAXSUS TAYLIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Nashr uchun mas'ul:

Sirojiddin SAYYID,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi

Mas'ul muharrir:

Odil IKROM

Ushbu kitobda Orifjon Komilovning samimiy qalb yozig'lariga, vijdon pokizaligining insoniylik shartlari ekaniga zimdan ishora qiluvchi satrlarga guvoh bo'lasiz. Kitob o'quvchiga tarix va bugunning uyg'un haqiqatlarini bir-bir bayon etadi. Orifjon Komil – yurak shavqining eng baland cho'qqisiga intilishni niyat qilgan shoir. Uning she'rlarida hammamizga tanish hayotga tashnalik va hayratning chaqnoq nigohi charqilab turadi.

Ushbu kitob 2020-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi she'riyat kengashi tomonidan nashrga tavsiya qilinib, "Ifod" jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan.

ISBN 978-9943-6780-3-3

© O. Komilov, 2020
© "Adabiyot", 2020

YANGI NIHOL

"Yashillikka burkangan bog'larda jannatdagi hurlar raqsi"ni, "nuroniy chehralarda portlagan nur bag'rida ajinlar o'rmayotgan"ni shoirona nigoh, orifona tuyg'ular uyg'unligida ko'ra olish – Orifjonning ash'ori-ga xos xususiyatgina bo'lib qolmay, so'zga, adabiyotga hurmatining betama ifodasi, dalili deb baholash joiz.

Orifjonning ayrim she'rlarida ma'lum yuksakliklar, ohang-uslublardan ta'sirlanish holati uchraydi. Ammo muvaqqatligi muqarrar bo'lgan bu hodisani yigirmanchi asr oxirida yashab o'tgan bir donishmand shoirning ta'bi bilan "bahramand"lik deb atasa to'g'riroq bo'lar. Ya'ni, har bir yangi nihol eski daraxtning urug'idan unib-o'sadi. Shunday ekan, nasl-u nasabi tayin har nechuk zurriyodning o'zidan oldin yashab o'tgan avlodidan nimandir "yuqtirib" olishi – tabiiy hol. Orifjonda o'z uslubini yaratish yo'lidagi bu bosqichdan, ta'sirlanish tasarrufidan chiqib, o'z so'zini baralla ayta olishga asos bor. Bu – uning bilimdonligi, satrlarining ravonligi, so'zlari-niing rostligi, tuyg'ularining samimiyli-gi, aql va his-tuyg'ularining muvozanatida ko'rinadi.

Birgina "Oллоhu akbar" so'zining zavqi va qamrovi besh vaqt ado etilguvchi namozga sig'magani" (M.Iqbol) kabi, Orifjon – huzur va hazar, shariat va tariqat, nozimlik va shoirlik, ruku va sujud orasidagi masofaning mohiyati, maqomi va qamrovini anglash ibtidosida. U bu ibtidoning inthosi baxayr ekanligiga ishonitra oladi, deb umid qilaman.

ODIL IKROM,

*O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
shoir.*

ONA TUPROQ

Nonday aziz bu Ona tuproq,
aziz unda ungan maysalar.
Uni Bobom sevardi ko'proq,
erkalardi qo'lida maydalab.

Ming yillikning qa'rida yotgan
olis moziy sarhadlarida,
Iskandarning qo'lida qotgan
tuproq uxlar cho'l barxanida.

Qadim jo'mard o'sha Shiroqning
topingani, suygani – Vatan.
To'marisdan oqla zotning
ko'zlariga to'tiyo maskan.

Mugannaning bayroqlarida
gardi yuqib, hilpiragan zar.
Azim tog'lar so'qmoqlarida
hamon o'sha shijoat uxlar.

Havonida Ibni Sinoning
malhamiga qorishgan jondek,
Buxoriydek ulug' siymoning
Sahlida toza imondek.

Beruniyning poyida ungan,
 ulug'langan bir toza xoksan.
 Xalloyingni hasrat-la ko'mgan,
 Attoringni eslab g'amnoksan.

Temur seni muqaddas bilib,
 asraganda onasi kabi
 Har bir zarrang uchun jang qilib,
 seni qo'rish edi matlabi.

Navoiyning dilbar nazmiga
 tasvirlandi shaykat-u shoning,
 Yo Mashrabning oshiq bazmiga
 singib ketdi xokisor qoning.

Milyon marta yog'iy lashkari
 toptaganda muqaddas yuzing,
 Erman degan elning mardlari
 fido qildi elim deb o'zin.

Hindlab ketgan xasta Boburning
 hislarida titragan bir jon,
 Tushlariga kirtardi uning
 gullab yotgan xoki Andijon.

Aytaversam tarix qa'ridan,
 tirlitirsam minglab xotirni.
 Kuylanmagan doston bag'ridan
 tilga olsam ne-ne botirni.

Tugamaydi bu kuy azaldan,
 zabonimda tugasa so'zlar.
 Mana, tuproq bir siqim – Vatan,
 vujud asli makonin izlar.

Quchon ketar bo'lsam boqiyga,
 farzandimdan sugancha ko'proq,
 Pok tanamni olib bag'riga,
 erkalaydi shu Ona tuproq...



ONA ADABIYOT

Adabiyot – Onajon!
 Ahvoling nechuk?
 Boshing og'ridimi, behol yotibsan.
 Yuraging tirnagan qay darding uchun
 xasta vujudingga hasrat yutibsan?

Qara, tomiringning urishlarini,
 bosiming oshibdi, ko'zlaring so'lg'in.
 Ko'ryapman tilingning qurishlarini,
 Onajon, bu qadar yotibsan horg'in.

Entikib olyotgan nafaslarimga
 jazira tafdiday harorat unar.

Onajon, mung'ayib qolgan tanimga,
 ko'ksingda armonning zulmati tunar.

Onajon, ne qilay, buyurgin tezroq,
 Sinodan malhamin so'rab kelaymi?
 Yo Hirot yurtiga jo'nab hoziroq,
 Hazratning qoshiga qushday yelaymi?

Yo xatn qilaymi Kalomullohni,
 Ustozlar holidan olaymi xabar?
 Yo xasta joningga tilab islohn,
 duolar qilaymi mahsharga qadar?

Qabrimga boraymi Asqar Mahkamning,
 Kofarinhon suvin keltirayimi?
 Ne qilsam, yaranga bo'lar malhaming,
 bog'ringni So'z bilan to'ldirayimi?..

Mungli nolalaring tinglab har qachon,
 Ko'zimda pinhoniylolalarim bor.
 Men-ku, bo'lganimcha bo'ldim, Onajon,
 Turgil, tarbiyangda bolalarim bor...

OCHIQ KITOB

Ochiq qoldi o'qilmay kitob,
 sahifalar tartibin saqlar.
 Bolashamol yugurib shu tob
 rasm izlab, kitob varaqlar...

Qovoq uydi qoraygan osmon,
 gumburpladi bulut to'plari.
 Ochiq qolgan kitob shul zamon
 yomg'ir suvin obdon ho'pladi...

Xiralashdi satrlar xiyol,
 unutildi anvoyi xoblar.
 O'rindiqda o'tirar behol
 o'qilmagan ochiq kitoblar...

ONAM GULSUNOY ADASH QIZIGA

Qadimiy Urgutning so'lim bog'lari,
sokin Ko'tarmaning sarhadlaridan,
Samoga chirmashgan abjir tog'lari
poyidan boshlanar shu ulug' Vatan.

Shu ulug' maskanda farishta misol
yuzida quyoshning nuri taralgan.
Jannatni bag'riga olgan bir ayol –
Allohning muborak rahmi yaralgan.

Yursa, izlaridan mast bo'lar gullar,
matonat hislari singib goniga.
Parilar yo'lida qulluqda turar,
bulutlar salomga kelar yoniga.

Uyg'onar shamollar dil qataridan,
yorqin nigohida chaqnagay yulduz.
Maysalar nur emar qadamlaridan,
Kulsa, yuzlaridan yorishar kunduz.

So'zlasa, lafzida hikmat aks etib,
changdagan dillarga rohat baxsh etar.
Ezgu duolari qalbin tark etib,
yuksalib Allohning Arshiga yetar.

Metindan qattiqroq sabr kosasi
tomonlari dunyoning g'amlarin so'rar.
Ko'rsatmay ko'zda zohir jolasin
tug'yo libosida ro'molin o'rar.
Q'arq bo'lib mehrining daryolariga,
tashib quyoshdek qaynoq taftidan,
Aylansam o'tirgan bo'yrolariga,
Onamning poyidan boshlanar Vatan!

ARAB SAHROSI

O'rta yer dengizin nam epkinlari
silmay cho'qqisini yuvganda oqlab,
badmiyat shamolning chirkin kinklari
Yaqin Sharq bag'rini o'tmoqda yoqlab...
Hayr etar kaxxatlar osmon bag'rida,
qamoqli keng yoyib og'ir va vazmin.
Arab sahrosining qaynoq qa'rida
to'boora bolalab borarmi hazin?
To'zonga qorishdi G'azo dashtlari,
to'zidi oltisda Cho'li Iroq ham.
Q'atnagin Suriyaning mard sarkashlari,
to'zon nag'masidan qaddilari xam.
Farzand dog'larida kuyar Falastin,
yig'laydi Damashqda mungli onalar.

Maqtullar qotildan ololmay qasdin,
 otasiz qolmoqda milyon bolalar.
 Hamma yoq tinch emas endi Bog'dodda,
 mazlumlar bir yonda, zolimlar bir yon.
 Arab sahrasida har bir bog'otda
 mushfiqa ayollar yig'laydi giryon.
 Dillari xun bo'lar bani odamning,
 tomoqdan o'tmayin qoladi oshing.
 Qirilar ochlikdan xalqi Yamanning,
 nega ko'rinnmaydi ko'zingda yoshing?!
 Tobora balandroq uchar cho'qqida,
 Sinay tog'laridan esadi epkin.
 O'rta yer dengizin to'liqlarida
 ma'yus xotiralar suzmoqda ezgin...



TIRIKLIK

Tiriklik nimadir,
 bir hayallik vaqt
 va omiy lahza-day o'tkinchi bari
 va yo bir manzildan boshqasi taraf
 jun ketib bormoqmi o'limlik sari.

Tiriklik nimadir,
 kottiralarda
 bir zaif nuqtaday yashashmi ingrab
 va yo mo'min bo'lib kirmoq qabrga,
 tiriklik yashashmi osmonga qarab.

Tiriklik nimadir,
 iftissalar aro
 mustahkam tutmoqmi
 bandalik yo'lin...
 Haq sorti yuzlanib so'ng g'amginsaro,
 tiriklik – ketmoqdir,
 tiriklik – o'lim!

UYG'UR KAMONI

Sharqdan mo'ralaydi zaraftshon quyosh,
nurti naysasini sanchadi yerga.
Koshg'ar sarhadida ko'tararmi bosh
zulmot lashkari xun bilan birga.
Chinning devoridan sakraydi hatlab,
Sakraydi, fitnaning ulg'ayar joni.
Turkning bisotida borini xatlab,
o'ljaga olinar Uyg'ur kamoni.
Olinar, ming yillik tarix qa'rida
Tibetga tutashar za'faron tog'lar.
Sharqiy Turkistonning shonli bag'rida
qonlarga belanar jannatiy bog'lar.
Rags etar xo'rlikdan ko'hna qadriyat,
rags etar bobolar bezovta xoki.
Urchiydi irtigan gunoh, ma'siyat,
urchiydi tuhmatning chirigan zoti.
Nihollar gojirar Urumchidagi,
bahorni ko'rmagan gullar qovjirar.
Zanglaydi kishanlar zalvorti qati,
rukuga engashgan boshlar dovdirar.
Siquvga solinar sur muxtoriyat,
solinar siquvga ozod shamollar.
Ona Turkistonda kezman hurriyat
Uyg'ur bolasining hajridan yig'lar...

Yo, Xudo deymen-u, qo'llarim ochib
hurlik kunlarimgi tilab yotarman.
Shor yuragim-la g'azabim sochib
Uyg'ur kamoni-la she'rilar otarman...

ORZU

Ille lahza g'iyohga aylansam, nafs,
timmay potirlasam, qiyg'os bo'ylasam.
Ushiq yuragimga ilhomlar solib,
samimiy tuyg'ular haqda o'ylasam.
Yayrasam,
sabbolar bargim tebratib,
sochlim tarasalar samum yellari.
Timmay o'saversam, poyimda zamin,
namoga yetguday bo'lsa qo'llarim.
Ille nafas sog'insam
tongda boshimdan
sirlardek yog'ilgan shabnam yoshini.
Ille maysa bo'lsam-u, unutsam oxir
yelkam ezig'ilagan armon toshini!

LAHZA

Hammasi bir gulxan yonida kechar...

Tug'ilmoq...

Yashamoq...

Va o'lmoqlik ham...

Tiyra jon necha bor jonidan kechar,
Necha bor joningni esga solar g'am.

Bulutlar samoda kezar yastanib,

Balqigan oy yuzin o'raydi dog'lar,

Yulduzlar miltirab turar yasanib

Va xomush kuylaydi mahzuna bog'lar...

Uzoqdan esyotgan harir saboda

Yaqindagi gullar taratib attrin.

Hammasi jamlangan cheksiz fazoda,

Hammasi lahza evrilar g'amgin...

Quloqqa chalinar bir ezgin qo'shiq,

(Yarmin tushunaman, so'zlari forsiy)

Hammadan oldinroq yargalganmi ishq,

Ishqqa yo'g'rilganmi hadisi qudsiy...

Hammasi bir gulxan yonida kechar,

Gunohlar...

Savoblar...

Va tavbalar ham...

AFG'ON SHAMOLI

Hi yonda Safedgoh,

bir yon Siyohgoh,

Hishtkush bo'ynida tutashgan tog'lar.

Dashli Marg bag'ridan to'zg'igan to'zon

Mozori Sharifning yuragin dog'lar.

Ishtida Hazarjat cho'qqilarida

Zard'sht kosusidan to'kilgan toshlar.

Faravrud dar-yosin irmoqlarida

qayragan qayg'uni Xamunga boshlar.

O'l olar Qandahori!

O'l olar G'aznai!

O'l olar Qobulning uyg'oq ruhlari!

Yommoqda Xashrudning qaynoq o'zani,

yommoqda Garmser titroq ohlari!!!

Hi ophiin istarlari!

Harrik istarlari!

Istarihar moziyga tutashar sinchlik!

Vatniyar uxlagan xoblarga qadar

Afg'on shamoliga bermaslar tinchlik!

ZANGLAGAN TIG'

Tig'larning damini qayramas toshlar,
Qayroqlar moziyga ketdilar qaytib.
Yelkada qo'rquvdan osilgan boshlar,
Botirlar jon berdi kalima aytib.

Bir savash uyg'onar olam sahnida,
Oldingdan saflanib ko'rinnas yog'iy.
Kurakdan sanchilgan tig'lar zaxmidan
Na g'azot oshkora, na oshkor g'oziy.

Sadoqlar huvillar, otmog'lik uchun
Kamonga esh bo'lar o'qlar topilmas.
Oriflar behuda sarflaydi kuchin,
Zobitlar qo'llida dushman chopilmas.

Ilonlar chiqmaydi yaxshi gap bilan
Kulchalanib yotgan ilonzoridan.
Tig'larni qinida zang guli bosgan,
Jo'mardlar ingranar cho'ng mozoridan.

Xoinlar urchiydi, badbo'y hidlari,
Tug'ilar milyonta xoinvachchalar.
Azaliy zaminning bor boyliklarin
Iblisga topingan shaytonlar talar.

Yashnilar samoda ketdi targ'alib,
U lakasov' qushlar bazmini boshlar.
Qayroqlar moziyga ketdilar qaytib,
Tig'larning damini qayramas toshlar...

ERK

Za'faron tog'larning qoyalarida
Ijodkor ko'rmasiga o'ranib shamol,
Sog'imib manzilin soylar bo'yida,
Hushsiz sarhadlarda uchadi behol...
Toshda uvlaydi og'riq zabtidan,
Kazonlar orzusi - kuzakdagi erk...
He ajab, tog'larning hazin qo'ynida,
Sartir qarshisida barcha yo'llar berk.
U addor archalarining soyalarida
Karamanglar dardidan falsafa to'qir...
Hilarga ko'milib yozgan she'rlarim,
Tog'larda daydigan shamollar o'qir...

SOG'INCH

Onaginam,
zaminday xokisor,
osmonday baland,
kaftlari gui kabi xushbo'y rayhonim,
yo'qlab kelmadimi bemehr bolang?
Bolam deganingda og'rinar joning.
Oltmish yil oltindan aziz umringda
birrov o'yladingmi o'zingni bir bor?
Bolang uxlatmagan bedor tuningda
zahmating yukini etmading nisor.
Shodlliging ulashding, olti tomondan
olti jon jisingning quvvatin so'rdi.
Tinim ne, bilmading tonggi azondan
xuftonlar qo'lingni mehnatda ko'rdi.
Qishni qish demading, yozni saraton,
kuz ham saxiylikni o'rgandi sendan.
Umringda bahorlar bo'lganmi? Qachon?
Qachon xotiringda halovat to'lgan?
Yemayin yedirding, ichmay ichirding,
kiymay kiydirganing rost edi, Ona.
Mingta gunohimni ming bor kechirding,
yaramni bog'larding qo'llaring qonab.
Safarga otlansam, qanotlar qoqib,
dilpora kuzatding, intizor kutding.
Uchta qiz uzatding, yuraging yoqib,

...o'zining ortidan o'zini unutding...
 Hagar hashsh etganding, to'qiz oy dujon,
 hechqat qonimning qaddini bukib.
 Hagar men ulovman, kimman, Xudojon?!
 Yohdani ko'zidan sog'inchini to'kib.
 Ashtun onamning bitta ohiga
 yuz shidan to'kilgan milyonta she'rim.
 Hingina qarayman, umrim rohiga
 ko'rinar oltidan ulg'aygan yerim.
 Ko'rinar onamning munis chehrasi,
 ko'rinar yo'linga intzor ko'zlar.
 Ko'rinar tonglarning sokin nafasi,
 ko'rinar duoga yo'g'rilgan so'zlar.
 Achi ulug' shoir - o'zingsan, Ona,
 har lahza sahringdan bir ash'or do'nar.
 Holangni sog'inib g'iyonsan yana
 va yana vujuding sog'inchiga ko'nar.
 G'inihga qotishgan umr yo'limda
 saqlabdim g'amim yegan farishtam.
 Imkonlar uzatib yuz bor qo'linga,
 imkonlar qolganing aytmadning hech ham.
 Imyundan dunyolar izlayman bugun,
 izlayman, yo'qotib, topganim nedir?
 Poyingdan yitiroqlab ketganim uchun,
 imkon, bemehr bolangni kechir...

OPAMGA MAKTUB

OpaJon,
dunyoda bitta uka bor -
she'rlariga shaydo,
vaqtlari tig'iz.

Sizni yo'qladimi aqalli bir bor?

Bir bor yo'qladimi kelsa ko'ringiz?

"O'zidan ortmaydi",
bahona bari,

Aslida ortmaydi dunyo yig'ishdan.

O'tmoqda umrning

bahor, kuzlari,

bemehr ukangiz ortmaydi ishdan.

Shamollar Urgutdan esar sarsari,
qaldirg'och vijirlab hovlingiz kezar.
Siz tomon talpinib chopganim sari
tiriklik vajlari yo'llarim to'sar.

Men sizdan olislab boryapman, mana,
olislar yurakning qaynoq zarblari.
Sog'inchdan ko'zlarim namlanar yana
va isyon boshlaydi shoir dardlarim.

Opajon,
dunyolar sig'mas dilimga,
ba'zida sig'mayman dunyoga men ham
Ko'zlaringiz qarab qoldi yo'limga...
Duosi mustajob,
munisam opam!

OpaJon,
dunyoda bita uka bor -
she'rilariga shaydo,
vaqtlari tug'iz...

DAYDI KUZ

Onajon!
Kuz keldi, qara, bog'larda,
sarg'aygan yaproqlar bo'lyapti hokim,
Mezonlar sayr etib butazorlarda,
samoda bulutlar suzyapti sokin.

Turnalar arg'amchi tuzib qaytadan
o'sha, ibtidoiy qo'shig'in aytar.
Onaion!

Kuz kelib olis jabhadan
shoir yuragimga ezginlik qaytar.

...tutunmıyayman, yo'laklar sassız,
...yürüyen sazınlar poyunda yotar...
...tutunurdu şimşaklar esmede so'zsiz,
...tutunurdu belagın tongların otar.

Ushu hujjatni daraxti yaprog'in to'kib, bir kuni in moziyga ketar ergashib.

...hingga qiro'lar qo'nib,
...hingga daydigan kuz-la dardlashib...

Hayotning o'zidagi dardlari ham o'z
 hayoti aylanmasining bir qismidir.

Yurmlashning yuboddek tilsiz g'amlari
 har qanday yubodlarni xazonday ezar.

hazirgi kunda bo'yapman turnalarga jim,
uchrayapman samoviy qo'shiqlar aytib.

Yonimga bo'lmagan paytim
shunda yuraman, kuz kabi daydib...

... bog'larda...

BESHINCHI TOMON

Onajoni!

To'rt tomon sukunat,
to'rt tomon jimlik,
to'rt yonda to'rt mingta hayot qoldi!
To'rt yondan bostirib kelganday kimlik,
to'rt mingta xavotir tuydim oxiri.

To'rt tilda so'yladi mudroq botinim,
to'rt yuz yil uxladim zulmatlar aro,
To'rt tomonga chopdim,
chopdim betinim,
to'rt fasl qo'ynida, ham g'amginsaro.

Onajoni!

Gunohlar iskanjasida
to'rt tomonim qibla bo'ldi, bilmadim,
Mugarrab malaklar guvohligida
g'animat damlarni ko'zga ilmadim.

Onajoni!

Ketyapman qay manzil sari,
qay makon vujudim bag'riga imlar?
To'rt lahza tavbaniga tayanmay hall,
g'affat uyquqlari tomirim chirmar...

MAYSUM XAYOL

Onajoni!
To'rt tomon sukunat,
to'rt tomon g'ashlik,
to'rt tomonni izlaydi rubim.
to'rt tomonni yo'qimkan hadik?..
to'rt tomonni kelar anduhim...

Maysum xayolning
qay makon vujudim bag'riga imlar?
to'rt lahza tavbaniga tayanmay hall,
g'affat uyquqlari tomirim chirmar...

IT, OX Z, OS

Onajon,
poyingdan Xudogacha yo'l -
ruhimi chirmagan azob yo'llari,
Haq tomon yo'lvorib uzataman qo'l,
Shaytonlar o'raydi o'ng-u so'llarim

Duolar qilaman
yarim dil bilan,
O'zimni Masilga qilaman qiyos,
Tilisa yuragimni, bitta So'z tilar -
bitta So'z jismimni qulatar noxos,

Tunlari uxlamay yulduz qo'ng'ildan
bitta So'z ma'nisin izlayman badar,
Kun bo'yi izlayman,
kezaman o'ychan,
poyingdan Xudoning Arshiga qadar

Men na avliyo-yu
va na Hotamman,
va na qo'llarimdan don cho'qir qushlar
Fagat So'z izlagan
bitta gadoman,
fagat So'z qo'yrimdan qo'nimga tushar

*In oration nobilitas buxum,
in dissolutioribus g'angis
nobilitat robur robor uerbum*

bu alla safarga olindi ohim,
 qadim kashkari poyingda sezar.
 to'g'ri mo'ldan topguncha tokim,
 qadimga hislatim olamni kezar.

Shu kechikay k'am suvin ichib,
Kamoy'in bo'masa o'ksik dillarim,
Bim bo'z daridda o'zimdān kechib,
Kamoy'in Arghuacha bir So'z izladim.

Ma'lum maqolaning firqatidagi
tuzatish dasturlarining shijoatini.
Ma'lum dunyoviy xilqatdagi
qatnash o'zgarish yillar qatini.

Kamradni topmadim,
hozir So'z sochiballe,
qo'mingdan ulug'roq So'z topolmadim.
Ushu hali qalbingga solmadi hadik,
qalbi bo'yimindan yula olmadim.

...Xudogacha yo'l...

ARAF

Onajon!

Har kunim – muhim hozirlik,
har kunim Arafot bag'rida kechar.
Goh shayton ko'nglinga qilar nozillik,
goh Xudo qalbinga hidoyat bichar.

Yuragim zarbining qaynoq lavasi
sarkash tomirimi yoqar titraltib,
Onajon,
hayotning oniy lahzasi
o'tmoqda gohi gul,
goh toshlar otib.

Xasta vujudimning har zarra-sidan
istig'for so'raydi ruhim jilvasi.
Onajon,
hayqirgan qalb na'rasidan
eshitilib turar armonlar sasi.

Bir qadam oldinga yuraman nogoh,
ikki qadam ortga suradi g'amlar.
Bolangni qo'llaydi birgina iloh,
o'tmoqda bunyod-u bebunyod damlar.

Orifion Komilovning bevaqt o'limi
qalbmga hasratlik to'ldirgan rost.
Men faqat o'tmoqda o'tkinchi umrim,
hayotim.
Qalbmda o'tirg'in biroz.

Men o'tirg'in nozik nihollar
shu daraxtlarga aylanganini.
Men o'tirg'in umidvor qo'llar
be'ohar to'langan ko'ngling kamini.

Men bir ekinzor ekan, Onajon,
shu ekinni o'rib ketayapman badar.
Men ko'ngim – bir o'lim!
Men ko'ngim – bir jon!
Men o'lim tirildim bugunga qadar.

Orifion Komilovning bevaqt o'limi
qalbmga hasratlik to'ldirgan rost.
Men faqat o'tmoqda o'tkinchi umrim,
hayotim.
Qalbmda o'tirg'in biroz.

Orifion Komilovning bevaqt o'limi
qalbmga hasratlik to'ldirgan rost.
Men faqat o'tmoqda o'tkinchi umrim,
hayotim.
Qalbmda o'tirg'in biroz.

ILK GUNOH

Quyuqlashib keldi soyalar,
quyuqlashdi qumron dardlarim.
Oq yo'rgakka meni doylar
yo'rgaklagan ma'sum damlarim...
Shu lahzada kindigim kesib,
qonlar to'kdim, bu – ilk azobim.
Erkinlikning bahridan kechib,
kishanlandi tutqun hayotim...
Ilk nafasdan o'pkam kengayib
dunyo changin yutganim ham rost.
Ko'ksimgacha boshimni egib
bu xushlikka qildim e'tiroz...
Ilk so'zimni oz-moz eslayman,
chingqirig bir yig'iga o'xshash.
Ona, endi qandog yashayman?!
Tomirimiz bo'lmasa tutashl...
Vujudingni titratgan to'lg'oq...
Jonim achir, barini aytсам.
Ona, dunyo rahmingdan torroq,
imkon bo'lsa, rahmingga qaytsam...
Qirg yil juftin yo'qotgan qushdek
qirg jonimdan sitildi ohim.
Ona, dunyo ekan-ku tushdek,
kelishim-u ketish – faryodim...

Senga to'lg'oq azobin berib,
ilk gunohim sodir etarman.
Shu gunohkor boshimni egib,
Haqdan keldim, Haqqa ketarman...
Quyuqlashib kelar soyalar,
quyuqlashib qumron dardlarim.
Oq kafanga meni "doyalar"
kafanlagan g'amgin damlarim...

SHAM NOLASI

Shunchaki yonmasdim
o'zimdand kechib,
qabrimga aylanib
o'tirgan joyim.
Ne yilki, bag'rimda
Non-u tuzim yeb,
ichimdan yovqimasa
Ip degan xoin!!!

O'G'LIM ISMOILGA

Bu foniyl dunyoning har kuni – kurash,
 har dami – jangohning qaynoq jabhasi.
 Har lahza – qirg'ini ofatga o'xshash,
 har gadam jaranglar qilichlar sasi.
 Har manzil – yog'iylning pistirmasida
 shaytoniy vujudlar payt poylab yotar.
 Har sahar yorishgan sharqning ufqidan
 savashga chorlovchi g'amgin tong otar.
 Yog'ilur paykonlar yomg'iri sharros,
 qalqoning sabrini sinaydi toshlar.
 Kim o'ngdan, kim chapdan chang solar noxos,
 sadog'ingda tugab borar bardoshlar.
 Sipohiy siyratin bilmassan uzoq,
 bilmassan do'st kim-u, dushman kimligin.
 Taloto'p qirg'inda qo'yarlar tuzoq,
 eng xavfli ofatdir – g'afflat jimligi.
 Gohida muzaffar shamollar esar,
 goho mag'lubiyat quchar dunyoni.
 Xufiya sharpalar atrofta kezar,
 goh qora bulutlar chulg'ar samoni.
 lymon-e'tiqoddan tut qo'lda qalqon,
 haq yo'lda zulfigor qiliching o'ynat.
 Faqat rost so'zlardan yo'llagil paykon
 va halol jang qilib yog'iylni qulat.

Shafqat neligini bilmagan dunda,
 unutm, aldovni o'chirib bo'lmas.
 Har neni kechirish mumkin bir kunda,
 Ammoki xoinni kechirib bo'lmas...

QALAM NIDOSI

Boshimni tikaman, zo'r musibatga,
 yo'ng'ich filkratimni ezg'ilar mayin.
 Qismatim chulg'anar bir haqiqatga,
 kichrayib boraman yurganim sayin.

Qalbimni kemirar qog'oz betinim,
 sovrilar ichimda qoraygan g'amlar.
 Ortimdan mung'ayar tarqoq izlarim,
 vujudimni quchar turfa odamlar.

Ba'zan she'r yozaman hislarga cho'mib,
 yozaman ba'zida irfon xatlarin.
 Faqat og'rinaman, ko'zlarim yumib
 yozganda munofiq malomatlarin.

HAZRAT

Deraza epkini pardani yelpib,
izinsiz xonamga kirganda shamol,
Xushsuvrat parilar yonimga kelib,
yana olislarga boshlaydi xayol...

Yetaklar tarixning zarhal qa'riga,
Hiro't yo'llarida sayr etar ruhim.
Ko'hna Xurosonning sokin bag'riga
uyg'unlashib borar diida shukuhim.

Xayolan Hazratning maskanin topib,
Sohir hayajon-la eshik qoqaman.
Pariro'y nigorlar hijobin yopib,
eshikbon sas berar: "Hozir ochaman!"

Asta ichkarilab boraman, yo, Rab!!!
Shinam yo'laklarda muattar gullar.
Yam-yashil daraxtlar ufqqa qarab,
shoirona ilhom ichida gurlar.

Chahchahlar men nomini bilmagan zarqush,
ariqlar jildirab oqadi rangin.
Jannatda yurganday bo'laman sarxush,
marmar hovuz yuvar nilufar bargin.

Asta uyg'onadi Afg'on shamoli,
salomga chog'lanar bulbullar g'ujg'on.
Aks etar gulshanda Firdavs jamoli,
har laha qalbimni chulg'ar hayajon.

Ichkari hovlida, ranglar sahnida
sukutga tolganicha o'y surar Hazrat...
Shu onda suzarini g'azal bahrida,
nazm gulshanida bolig'a fikrat...

Yaqinroq boraman, nurli yuzlarin
shu'lasi atrofini yoritib borar.
Muborak lafzida aytar so'zlarin
kotibul asrorlar tarixga yozar...

Ta'zim-la, hayajon qutqusin yorib,
Go'zal Samarqanddan salom aytaman...
Har kuni xayolan Hiro'tga borib,
Hazratni bir bora ko'rib gaytaman...



BUZRUKVOR

...Isitmalab borar shahzoda...
 G'alayonga chulg'anar poytaxt.
 Hind quyoshi yongan havoda
 samum yelar Gangadan karaxt.
 Qiziyapti Zamin hil berib,
 xarsang nurab bo'lmogda mayin.
 Shamday so'nib borarmi, erib,
 og'irlashar dard soat sayin...
 Lab tishlaydi hassos hakimlar,
 topolmaydi shifo malhamin.
 Xastalik dil g'amini imlar
 to'ldirolmay dunyo bir kamin.
 Hirotda jim, Qandahor, Qobul,
 Panipat jim, Dehlida jimdir.
 Hind ummoni uyg'otgan dovul
 Buzrukvorning qoniga singir.
 Yulduz terar bedor samoda,
 oromini izlar shahanshoh.
 G'amlaridan simirar boda...
 "Najot bergin, rahmdil iloh!..."
 Mavlanadi muazzam sog'inch,
 mavlanadi olamlar dodi.
 Shahanshohni o'rtaydi o'kinch,
 olamlarni buzar faryodi...

Shimol yooqdan esgan shamolda
 Andijonning bo'yini hidlar.
 Oy evrilib topgan zavoday,
 shuurini og'ular hindlar...
 Taxt huvillar, mana, necha kun,
 loynamozda sojid manglayi.
 Shifo tilab dilbandi uchun
 duo qilar titroq tanglayi.
 Samolarda parqut bulutdan
 Hind do'liday yog'ganda hislar,
 Tamomila o'zin unutgan
 shoh zulmatdan yog'duni izlar...
 Aylanadi falakda kavkab
 quyosh girdin aylangan kabi.
 Vujudida ixlosin o'rab
 pichirlaydi oyatdan labi.
 Shahzodaning tegrasida bot
 Buzrukvor Pir nafasini yo'llar...
 Uchqunlana boshlaydi hayot,
 ishq malhami qoniga o'rilar...
 Sayyor kezzagan daydi majnundek
 shahzodani tark etar dardlar...
 Gard yuqtirgan qora quyundek
 Shahanshohni zabt etar g'amlar...

HUKM

Abdulla Qodiriy xotirasiga

Olamni titratdi o'qning ovozi,
Nil kabi manglaydan oqdi issiq qon.
Sindimi bag'ringda sher o'g'lon sozi,
O, Ona Turkiston, Ona Turkiston?..

Endi huylarni
yashil bog'laring,
kuz rasmin chizarmi xazonrez falak?
Yuraging o'rtagan farzand dog'laring,
qizlaring qayg'uda yotar jonsarak.
Endi xayollardan vorid shajarda
turfa rang bo'yoqlar sepilgan yo'llar,
guzar-u, nohiya, har bir shaharda
alvonrang tug'larni tutarmi qo'llar?
Panalab xoinlar
yoqasi ichra,
gumdon bo'ladirmi chirkin boshlari?
Endi samolardan vujuding uzra
yog'masmi tunlarning qonli yoshlari?
Endi jo'mardlarni qiyratgan giron
pokiza boshlarga otilgan tuhmat.
Orsiz bag'irlarda urchigan chayon
urchisa iblisrang badbo'y xusumat...

Endi vohalarda daydigan nurlar
qo'nimin topmagan devona shamol,
sochlarin timdalab yig'lagan hurlar,
endi xotiringni o'rtar bir savol...
Savolki, mardlarni yig'latar beun,
savolki bag'ringdan otilgan vulqon.
Yovga ters boqmagan jo'mardlar uchun
bir siqim tuprog'ing bo'ldimi makon?!

KEL...

Arazi kunlarni unutib tamom,
unutilib dildan qayg'ular-u g'am,
bir bora kelsang-chi endi men tomon,
kelgin, diydoringga to'yayin, erkam.
Shamollar o'ynagan hislaring-la kel,
yo'qlab kelishingga qolmasin shubham,
o'zib ketolmasin qadamingdan yel,
kelgin, diydoringga to'yayin, erkam.

Harir bulutlardan hijob yopsa oy,
charog'on yulduzlar chiqqanda ko'rkam,
oyday yuzlaringda aks etib xumoy,
kelgin, diydoringga to'yayin, erkam.

Muttar bo'yingga dillarim qonib,
nafis nafasingda barq urib ko'klam,
yana tomirimda qonlarim yonib,
kelgin, diydoringga to'yayin, erkam.

Yog'dirib boshimdan mehr yomg'irin,
changqoq yuragimni sug'orib bekam,
mehrğa aylanib ketay oxiri,
kelgin, diydoringga to'yayin, erkam.

Hamalning amali gullaganda kel,
kelgin, farishtalar o'rsa tegram,
hijronning vujudi nuraganda kel,
kelgin, diydoringga to'yayin, erkam.

Umr ham poyonlab borsa oxiri,
sog'inch qaddim egib qilganida xam,
qulamay jismimning uyg'oq zohiri,
kelgin, diydoringga to'yayin, erkam.



YO'L

Yiqilsam, boshimni silaguvchi yo'l,
yursam, tovonimni o'par tamshanib.
O'tirsam, og'amday uzatuvchi qo'l,
yotsam, vujudimni quchar yastanib...

Olis manzil sari yo'l olsam badar,
jimgina kuzatgan, ranglari uchib.
Uzoq ayriliqdan keyin har safar
qarshilar qadamim, tuprog'i ko'chib...

Shovullar yuz yillik adil teraklar –
boshlari samoga yetgan mardlarim.
Idrokim shu yo'ldan olamga hatlar,
shu yo'ldan boshlanar ma'yus dardlarim.

Shu yo'llar guvohdir shodliklarimga,
guvohdir qayg'uli kunlarimga ham.
Bir kuni kuzatar so'nggi yo'limga,
bir kuni ortimdan chekib qolar g'am...

KOFARNIHON ARMONI

*Fazilati ustozim Asqar Mahkamning
porloq xotiralriga bag'ishlayman*

1.

Buvijon,
sarg'aygan horg'in ko'zlaring
dunyo osmoniga boqarkan ma'yus.
So'lig'ing qorishgan g'amgin so'zlaring
loydevor poyidan o'tmadi hanuz.
Hanuz nigohingda sog'inch damlari
tah-batah qatlamini etadi hosil.
Ko'ksingni kuydirgan ochun g'amlari
hanuz peshonangda mashaqqat nozil.
Tonggi ibodatlar halovatidan
duoga ochilgan titroq qo'llaring,
tilingdagi oyat tilovatidan,
samoga intlar iymon yo'llaring.
Bahoring yomg'irli, xazonli kuzing,
saratonda jazzoq kuydirar jisming.
Yaralgandan buyon o'ylamay o'zing
sabrga aylandi muborak isming.
Buvijon,
Dunyo, bu – bir tutam xasdek
qovjirab borarmi vaqt ofatidan?

Uch kunda telbavor yuramiz mastdek,
farog'at izlaymiz yillar qa'ridan.
Keng hovling jussangga tor kelsa ba'zan,
daraxtlar yelkangga suyanch bo'lmasa
va yo Kofarnihon sohillaridan
topgan huzurimgdan ko'ngling to'lmasa,
xarsanglar sukutdan ko'tarib boshin
tinglarmi ko'ksingdan uchgan nolangni?
Kofarnihon kabi sharqirab yoshing,
qattiq sog'indingni Asqar bolangni...

2.

Kofarnihon – dalli hamrohim,
dardeshday yohulab mavylaring kelar.
Sening-la oqmoqda dildagi ohim,
sening-la umrimning yillari yelar.
She'r kabi sharqiroq to'lqinlaringda
tomchilar samoga sachrab raqs etar.
Ruhimni o'stirgan sohillaringda
nuroniy buvimning nuri aks etar.
Qadimiy o'zaning sarhadlaridan
qonimga qorishgan suvlaring oqar.
Ming milga cho'zilgan farsahlaridan
umrimning millari moziyga boqar.
Sukutda yotibman, xayollarimda
bag'rida erkalar onaion – yerim.

She'rlardan iborat umr yo'limda
Kofarnihon, sensan – eng so'nggi she'rim.

3.

Armon hislarini tuydi ulug' yo'l,
armonga aylanib oqdi daryolar.
Gulzorda gulladi armon degan gul,
armonda titradi go'zal ma'volar.
Samolar boshingga aylandi charxdek,
dunyolar yig'ladi, yig'ladi g'amgin.
Tog'larning yonida turibman-u, lek
armonlar rostamas egik qomatini.
Vahdat kuylarining manzillarida
Ko'lna Kofarnihon sohillarida
Jim orom oladi daryo armoni...



SHE'R FARYODI

Shavkat Rahmon xotirasiga

Ko'zlangan manzillar hali ko'p olis,
olis samolarning baland toqlari.
Qattiq yer bir kuni yumsharmi xolis,
qachondir boshlanar yo'qlik choqlari.

Boshlanar mensizlik davri yangitdan,
izlarim topilmas kunlar boshlanar.
Ruhim-la kuzatib turaman chetdan,
bizni sog'inuvchi ko'zlar yoshlanar.

Daragim topmaydi shamollar hatto,
sochimni o'pmagan eptinlar so'nar.
Na mehr nurini sochmaydi samo,
na yer ham men birla kamlari to'lar.

Xazonlar yo'lakda sarg'ayar har kuz,
ko'klam ham takroriy qo'shig'in aytar.
Qolsa, izlarimdan qolar bitta so'z,
so'z ham ibtidoiy jimlikka qaytar.

Na sizning ko'nglingiz o'ksinar bir kun,
na do'stlar arzitib yilda yod etar.
Qolsa, hayotimga yasagan yakun –
Qop-qora chechakday she'r faryod etar...

ARMON

Rauf Parfi O'zturk xotirasiga

Kim bilsin,
nimalar kechar ko'ngildan?..

Kim bilsin,
ertaga kimmiz, nimamiz?..

Sukunat suvratin his etib dildan
kelgin, dunyolardan kechib ketamiz...

Ummonlar chayqalib,
Shamol tinmagan,

daryolar mavjlanib oqqan zaminida
tunlar oy nurining qadrin bilmagan,
ortiqcha ekanmiz dunyoyi dunga...

Kelgil,
osoyishta hislaring bilan...

Kelgil,
dardlarimga malhamlar ulab.

Axir, yuragimning qulfi bittadir,
axir bittadirman,
yonyapman, gurlab...

Kim bilsin,
samoviy durkun hislarim,

shu zaylda ogyotgan sirlarim nedir?..
Ortimdan yig'larmi shoir so'zlarim?!
Yig'larmi, shoirlik qilgan she'rilarim?..

Kim bilsin,
ertaga kimmiz, nimamiz?..

Balki, dunyolarni qucharmiz, erkam,
balki, koinotdan bong berar bir So'z,
balki, yulduzlarga uchamiz beg'am...

Balki, yer ostidan panoq topgaymiz..
Senmi, sochlarimni silagan mayin?..

Senmi, xotirimga botgan tig'larim..
Kim bilsin, umr ham o'tgani sayin

unutilib ketar,
balki, so'zlarim...

Kunduz samolarni bezagan quyosh
va bog'lar bag'rini salqinlatgan yel,

bir lahza,
bir lahza kechagiday yosh,

men quvib yetmagan
kapalakday keli



PARCHA

Bir otash yongaydir,
 bir ishq yongaydir,
 yongaydir atrofga taratib nurin,
 ko'lanka soladi titroq vujudlar.
 Yo, Xudo, asragil

asriy zabonim.

Bir his ber, yonguvchi
 otashdan uchqun,
 bir lab ber,
 pichirlay, oyatar sehrin.
 Bir qalb ber,

toabad Seni sevguvchi...

Yo, Xudo, munglagan
 hislar yurtidan,
 bir tuynuk ochilmay,
 bir tan sovumay,
 poyoniga yetmay
 umr yo'llarim,
 bir sado chorlasa,
 g'afiatda yotmay
 O'zingga eltuvchi
 sharafti yo'l ber.
 Qo'l ber, darg'alarda
 toyinsam ba'zan,
 Ko'klarga yetguvchi

parvoz ber baland.

Bir ruh ber,

Haq kelsa, jonni ayamay
 nafsiga jahd qilar
 bitta iymon ber...

Yo, Xudo,

samolar yiqilar kunda,
 tog'lar-da sarobday, to'zimay burun
 va daryo bug'lanib
 qurishdan avval,
 va yer ham tekislab,
 yorilmasidan,
 zilzila yutmasdan kakhkashon zahrin,
 bir ishq ber,
 sevguvchi,
 yonuvchi qalb ber
 va ishqim taftidan
 isinsin bag'rim...

MUSOFIR

Ey, jon!
 Bu ko'lna chang bosgan
 zaxkash do'konda,
 Attor rastasining bir chetidagi
 namxush va ko'rimsiz
 yotib bir yonda
 kasod bo'lgan mato kabisan, ey, jon...

Ey, jon!
 Darbadar uloqqan
 bir darvish misol
 va olam zahmatin o'ylamagancha,
 o'zingdan, o'zgadan kechgancha oson,
 O'ziga talpingan bir qushsan, ey, jon...

Ey, jon!
 Gohida iymonda,
 goho g'afatda,
 goho zulumatda manzil-bamanzil,
 goho devonalik,
 goho fikratta,
 nafsingga juhd qilib borasan, ey, jon...

Ey, jon!
 Ey, musofir jon!

Tug'ilmoqlik – haqdir,
 O'lmoqlik-da – haq.
 Dunyo bir vafosiz yor kabi bejon.
 Topganlaring – haqdir,
 yo'qotganing – haq,
 yo'qotib topganing ne bo'ldi, ey, jon?..

UZLAT

Bir kuni
 boshimni panalab, pinhon,
 yo'l olsam eng olis manzilni ko'zlab,
 tugunimni tugib, solmayin suron,
 uzlatga chekinsam, yurmagin izlab...

Bir kuni
 o'y surib, ming yilliklardan,
 qadimlab ketganda zulfqor ruhim,
 shunda hayotimning yo'laklaridan
 izlama, ko'ksimdan uchgan anduhim.

Bir kuni
 zulfimni mahkamlab, jimib,
 sukutga cho'nganda qaynoq hislarim,
 shunda vujuding-la sog'inchga do'nib,
 izlama jismining nursiz izlarin.

Bir kuni

shoxlari shitirlayturg'on,
chinorlar bargidek xazonrez bog'da
kuzak shamollari to'zganda to'zon,
izlama bargrezon vashim shu chog'da...

Bir kuni

voz kechib, hoy-u havasdan,
haq sari tobora borsam yovuqroq,
hozir isinib ol, u kun kelmasdan,
bilaman, o'sha kun bo'lar sovuqroq...

Bir kuni...



SUHBATDOSH

Bir dilkash suhbatdosh izladim g'arib,
izladim osmonning yetmish qatidan.
Takror kelaverdi bir his axtarib,
og'rindim jimlikning mashaqqatidan...
Og'rindim sasbermas xayollarda jim,
jimdir sukunatning yovvoyi qa'ri.
Xoblardan qarayman, ko'rinmas hech kim,
huvillar sirlari sovrilgan bag'rim.
Huvillar, partilar o'ynagan bog'lar,
shaharning shom yegan ko'chalari ham.
Odamzor zaminda yurar-u sog'lar,
yonimga yo'lamas jununi borlar:
Tobora soyaga do'nadi jisnim,
aylanar ruhim ham xilvatxonaga.
Bitta suhbatdoshning so'rayman ismin,
kutaman ko'z tikib uzlatxonaga...
Huv o'sha tong yotgan sharqning ufqidan
kelarmi bosh olib zarafshon quyosh?..
Va tungi g'ussaning ovloq zuhridan
yonimga kelarmi bitta suhbatdosh?..

ISHQ

Bugun anglab yetdim barini,
ayon bo'ldi oydin haqiqat.
Titkilabman ko'ngil qa'rini,
ko'ngil bo'lib qolibman faqat.

Angladimki, ishqdan ayromas
vujudagi har bir hujayram.
Angladimki, tomirda qonmas,
ishq olovi oqar muntazam.

Angladimki, toza vujudda
jilva qilgan bu zulfqor ruh,
boshdan-oyoq sohir hududda
tavbalardan tuyadi shukuh.

Angladimki, ayromas ishqdan
tanamdagi omonat bu jon.
Qo'l yuvaman endi har ishdan,
O'zing qo'lla endi, Xudojon.

Angladimki, maqsadim faqat
roziliging topmoq, aslida.
Ishq oldida yo'qolur toqat,
ko'ngil tashna Haqning vasiliga.

Angladimki, ishqimdan bo'lak
o'tkinchidir mayda lash-lushlar.
Endi uchib ketolsam kerak,
Uchganiday samoviy qushlar.

Angladimki, ishq to'la jomdan
tomchi totgan sayyor ovchiman.
Hattab o'tib ketaman tomdan,
Siz tanigan bir yo'lovchiman.

Angladimki, haqiqat nedir,
nedir asli ko'ngil maslagi.
Endi faqat ishq mayin keltir,
endi faqat ishqdir matlabim.

Angladimki, sajdagohimda,
mehtrobimda, Ka'bamda ham ishq.
Tasbeh aytgan har bayotimda,
gunohimda, tavbamda ham ishq.

Angladimki, o'tli ro'yoda
faqat bitta haqiqat bisyor.
Bu o'tkinchi yolg'on dunyoda
bitta Xudo va bitta Ishq bor...

IQRO

Ko'zlari ko'r bo'ldi haqir dunyoning,
 dunyo dunyoligini unutilib qo'ydi.
 Yuzlari qoraydi moviy samonning,
 bulutlar azador yomg'irini quydi...
 Na yulduz charog'on porladi chaqnab,
 na quyosh nuridan sochmadi ziyo,
 na oyning chiroyin bo'lmaydi alqab,
 na tog'lar ohimga bermaydi sado...
 Bir enlik gap edi ko'ksimda yotgan,
 g'urublar ichida gullagan g'urbat.
 Bugun siyratimda nuqralar otgan
 azaliy o'tmishning ruhidir faqat.
 Jismidan ayromas jismoniy hislar
 va tushkun xayollar o'tirar sokin.
 Kecha unutilgan shaytoniy izlar
 qaytadan jisminimga bo'lmog'chi hokim.
 Qochib ketayapman o'zimdano'zim,
 o'zimdano'zimda nafratim qo'zib.
 Goho tushlarimdan so'rayman to'zim,
 goho xayollarim ketyapti to'zib...
 Mana, Elbursning cho'qqilaridan
 goh Mag'rib, goh Mashriq tomonga boqib,
 o'tmishga aylangan tarix qatidan
 Nil kabi shovullab ketyapman oqib...
 Zulmat yopirilar, zulmlar aro

mazlum qonlariga sachradi qonim.
 Valiyilar oh chekar va g'amginsaro,
 dahmalar qo'ynida og'riydi joni...
 Turkiy ko'zlarimning tubsiz qa'rida
 tublarin yo'qotgan ummonlar yotar.
 Ko'zlari ko'r bo'lgan dunyo bag'rida
 yuzlari qoraygan tonglarim otar...

YOLG'IZLIK

Shu qadar yolg'izsan...
 judayam yolg'iz.
 Kimsa yo'q olamda yolg'izroq sendan...
 Og'iz juftlamog'ga so'z yo'q bir og'iz,
 panoh yo'q,
 yolg'izning yolg'iz fikridan...
 Taskin yo'q,
 ko'nglingga malham bo'lgulik.
 Malham-da topilmas dil ohing aro.
 Dunyoni muzlatgan yolg'iz ko'rgulik,
 yolg'izlik bag'rida tun – motamsaro...
 Hamroh yo'q,
 ruhingga ergashar nur yo'q,
 yo'qdir jismlarning yolg'iz matlabi.
 Koinot bag'ridan otilar bir o'q
 va sokin sukunat erur mahramning.

Ortingga boqasan,
soyang-da yolg'iz,
oldingda nurafshon yolg'iz yo'llaring.
Chor tomon ro'yoda evrilar bir his,
samodan uzanib ketar qo'llaring.
Tungi yog'dularni elaysan takror,
elaysan ko'zdagi yoshlaring tinmay.
Asli muhabbatdan yolg'iz nima bor?!
Nima bor yolg'izroq, aying-chi, ishqdan?!
Noparmon, g'amolud,
bod chalgan saboh,
nasimlar-da horg'in, g'amangiz shamol.
Bitta aso kerak va bitta kuloh
va yolg'iz surmoqqa eng yolg'iz xayol...



DARYODIL

Tomchi so'raganga daryoni berdim,
ulashdim qa'rimda ne bor, barini.
Har bahor boshingga tolbargak terdim,
har kuzak g'amladim xazon bargini.

Mehrnga aylanib ketdim oxiri,
aylandim xushsuhrat bog'lar rangiga.
Qirg'oqlarni yuvgan ishqim zohiri
namliklar ulashdi sahro changiga.

Muazzam chayqalib oqdim ham badar,
bag'rimda turfa xil hislarni ko'mib.
Ammo yetolmadim ummonga qadar,
daryodil o'zanim oqsa-da to'ilb...

Tomchi so'raganga daryoni berdim...



FEVRAL TONGI

Yakshanbada oynakdan qarab
hovli tomon boqar edim jim...
Derazamning tokchasi taraf
boychechakka tushdi-ku ko'zim.

Yodga oldim, kecha qizimga
hadya qilgan edi o'rtog'i...
Sayr etishgan dala yo qirga,
boychechakgul terishgan chog'i...

Xush kelibsani! Ey, jajji mehmoni!
Ko'klamoyning quvnoq elchisi.
Bolaligim eslatding shu on,
dimog'imda yalpizlar isi...

Kechagina sho'xliklar qilib
yugurardim qirning qo'ynida.
Qor ostidan boychechak terib
o'par edim oltin bo'ynidan...

Kechagina ko'klam qizini
bir ko'rmoqlik uchun kattalar
eshigidan haydamay bizni
uzatardi gand-qurs, chaqalar...

Kechagina bahorni qo'rsab
tog' havosin zavqin tuyardim.
Zar qog'ozga ohista o'rab
boychechakni jondan suyardim...

Bugun endi kechagi qirlar
tosh yo'lga do'ndi shaharning.
Boychechakgul o'sgan adirlar
xotirasi endi saharining...

Bugun qo'lida boychechak emas,
qalbing tutib borsang ham bashar,
Tamasiz bir so'zini demas,
naf ko'rmasa, seni haydashar...

Tashvish ungan har qadamingda
g'amchechakdan bezaysan alvon.
Dunyo yetmas sening kamingga,
terganlarim yetmaydi hamon...

Xayollarga berilib shu dam
labda tuydim yoshning izini...
Qani, qirga qo'yсам-u qadam,
quchib yotsam ko'klam qizini...

FEVRAL O'YLARI

Uzayib boryapti sokin kunlarim,
tunlarim qisqarib bormoqda badar.
Zamin qaviyapti yashil to'nlarin,
bulutlar o'y surar choshgohga qadar...

Qish bo'yi yopilgan derazalardan
yulinar shamolni to'sgan pardalar.
Ayoza muzlagan mezanalarda
muzzinga hamroh kezar sharpalar.

Quvlikni boshlaydi yaydoq dalada
inlarin yo'qotgan sayroqi qushlar.
Ismaloq uyg'ongan tonggi pallada
shabnam maysalarning ko'nglini xushlar.

Ariqlar sharqirab oqmoqda shoshqin,
ketmonlar zang bosgan yuzlarin yuvar.
Cho'qqilar ko'zyoshin to'kmoqda horg'in,
jilg'alar bir-birin ortidan quvar.

Xokisor fevralning kemtik bag'rida
shoirilar bahorni alqab she'r yozar.
Uzayib boryotgan kunlar qatida
Fevralga qo'shilib vujudim ozar.

So'zsiz tikilaman, yalang'och shoxlar
kurtagin o'stirar keksa tutlarim.
Tunlarim qisqarib boryotgan chog'lar
uzayib boryapti sokin kunlarim...

KO'KLAM

Uyg'ona boshlaydi Urgut tog'lari,
kaptari kurk bo'lar Xoja Amonning.
Nurlanar gaytadan Archazorlari,
o'riklari gullar Omongo'tonning.

Cho'qqidan ma'voga sakraydi Sorlar,
ko'zlari yashnaydi yashil boronda.
Tabiat bahorni qo'yniga chorlar,
maysalar gurlaydi Allayoronda.

Yastanar Ispanza kengliklarida,
har ariq bo'yida bo'yanar yalpiz.
Purviqor cho'qqilar muzliklaridan
quvonch yoshlarini oqirar Gulqiz.

Ko'k sepin yoyadi So'fiyon bag'ri,
chuchmoma xabarlar oladi do'stdan.
Bulutlar – ko'klamning suvli lashkari,
bahor boshlanarmi bu yil ham G'o'sdan?

Nihollar ishq emib naysonga cho'mdi,
ko'klamoy qo'lida Rayhon abrlar.
Qizg'aldoq bargi-la yuzlarin ko'mdi
mozortepadagi nurli qabrlar.

Yangradi Navro'zning nozik tortlari,
To'pxona boshida o'ynadi Hurlar.
Yana Torinjakning lolazorlari
dillarini yozmoqqa yoppalab qirlar.

Esmoqda nasimlar yashil vodiya,
qoqio't gulidan to'qiyman bayot.
Takror bo'laverar bu hol moziya,
Men uchun Urgutdan uyg'onar Hayot!

UYG'ONISH

Uyg'onar mizg'igan yashil kelinchak,
uyg'onar novdaning mudroq hushlari.
Qirlarni quchoqlar alvoniy chechak,
janubdan qaytadi jannat qushlari.

Uyg'onar moviyrang ko'l tublarida
ayozlab muzlagan oltin baliqlar.
Bepoyon o'rmonning hududlarida
uyg'onar uyqudan uxloq ayiqlar.

Uyg'onar shalola tomchilarida
yetti xil jiloda kamalak rangi.
O'rik kurtaklari qamchilaridan
oq bayroq ko'tarar gullarning jangi.

Uyg'onar mushk to'la ko'm-ko'k nastarin,
shabnamlar ishq emib yotar g'unchadan.
Bolari gulzorni kezgani sayin
ko'klam asalini yig'ar har qadam...

Uyg'onar muhabbat nafosatida,
uyg'onar qalblarda ishq ertaklari...
Nozik chamanlarning sabohatida
iforin sochadi gul kurtaklari...

Uyg'onib boradi qalbda muhabbat,
ishq guli muattar bo'yini yozar.
Firdavsiy nasimlar esar-u, faqat
ko'klam suvratidan eslarim og'ar...



SO'NGGI KUN

Ming yilki, shoxlarim gurladi yashnab,
ming yilki, uzandim bulutlar tomon.
Ne-ne sovuqlarga dosh berdim yashab,
ne-ne talafotdan qolgandim omon.

Ming yilki, ildizim yerning qa'riga,
tobora chuqurroq sanchildi tabiiy.
Har yili sarg'ayib kuzak bag'riga
xazonrez barglarni to'kdim asabiy.

Gulladim, soyalar soldim ham quyruq,
qushlarga halovat baxsh etdi jonim,
Ming bor kallaklanib, yig'ladim kuyub,
ammo pastlamadi betoqat orim.

Ming yilki, saraton chillasidagi
olovrang havoni simirdim qaqshab.
Bir epkin saboning jilvasidagi
bokira hislardan chayqaldim yashnab.

Ming yilki, serhosil quvvatim berib,
asalday shirali mevalar tugdim.
Ming yilki, mardona ko'kragim kerib,
dunyoda eng yolg'iz daraxtday turdim.

Ming yilki, ildizim, tanam bag'rini
g'alvirday kemirdi nobakor qurtlar.
Ming yilki, men ko'rgan tushlar ta'birin
Osuda so'ylardi yusufrang qushlar...

Bir qattiq shamoldan yiqildim uvlab,
mozorimga do'ndi gullagan joyim.
Meni yiqitmadi shamollar guvlab,
yiqitdi ichimda o'rlagan xoin!!!



APREL IBODATI

Muhojir tomchilar yog'moqda shartros,
Yog'moqda sajjoda bulut ohlari.
Chaqmoqlar duosi taralur noxos,
Tog'larda aks etar qaldiroqlari.

Daraxtlar iqomat lahzalarida,
tarnovlar rukuda salovot aytar.
Tasbeh o'g'iriyotgan jilg'a bag'rida
Hojiya yomg'irlar "makkadan" qaytar.

Kurtaklar gullamoq payg'omin olib,
Yaproqlar kiyadi yashil libosin.
Bog'lar mehrobiga joynamoz solib
Maysalar sajdaga qo'yadi boshin.

Muazzin shamollar mezanalardan
Borliqni uyg'otib chaqirar azon.
Jamoatga shoshib aprel qaytadan
Yaxtagin baridan to'zitar to'zon...

Ullamo chinorlar dastorin kiyib
Saffangan borliqqa imomat o'tar.
Takkir aytnoqlikka teraklar turib
Bir nafas muhojir yomg'irni kutar...

BOLALIK

O'g'irlab qochardim oy o'rog'ini
yulduzlar yo'liga yoyilgan mahal.
Do'st tutib qushlar-u qirchumolini,
Onamni yo'liga qilardim mahtal.

Shamollar og'amdek, yelkandan quchib,
anhorlar bo'yida o'tardi kunim.
Goho kapalakning ortidan uchib,
qanotga aylanib ketardi qo'lim.

Uzoq sirlashardim jilg'alar bilan
bag'ridan firuza toshlarni terib.
Tolxivich qo'limda bo'lardi saman,
kamalak otardim qulochim kerib.

Urgut tog'larining qorli cho'qqisi
murg'ak yuragimga solardi g'urur.
Dadam ko'kartirgan atirgul isi
beg'ubor qalbinga berardi huzur.

Burnin chimchilardim goho singlimning,
luchchak shaftolini terardik birga.
Bedazordan o'rgan shodliklarimning
barini hovuchlab chopardim qirga.

Ulkan o'riklarning baland shoxida
o'zimni hammadan baland sezardim.
Boychechak kulgusin izlab gohida
tongdan oqshomgacha dala kezardim.

Bir burda non bilan ko'nglim to'q edi,
neligin bilmasdim olam g'amlarin.
Eh, o'sha kunlarda beg'ubor edim,
kenttgin ko'rmasdim dunyo kamlarin...

Bugun o'g'irlayman oniy fursatim,
yulduzlar yo'limga ko'z tilkan mahal.
Do'st tutib o'kinch-u gayg'u-hasratim,
o'limni yo'limga qilaman mahfal.

Tashvishlar og'amdek yelkamdan quchib,
besamar chohlarda o'tyapti umrim.
Endi ehtiyojning ortidan uchib,
kishanga boylanib ketyapti qo'lim.

Uzoq sirlashaman sokin tun bilan,
bag'ridan xastahol so'zlarni terib.
Tushlarimga kirar xivichli saman,
tonglarni otyapman qulochim kerib.

Ona Turkistonning dardli cho'qqisi
bemor yuragimga solyapti g'urur.

Tegramda o'rlagan fitnalari isi,
endi aldovlardan ko'nglim behuzur.

Burnin chimchilayman goho qizimning,
qo'shuv amalini yechamiz birga.
Kun sayin yo'qotgan shodliklarimning
izlarin qidirib ketolman qirga.

Dunyo daraxtining pastqam shoxiga
o'zimni hammadan pastqamroq sezib,
samimiy kulguni izlab gohida,
odamzor zaminda yuribman kezib.

Bir burda halovat ko'nglim to'ldirib,
ortmoqlab boryapman olam g'amlarin.
O'zimni har nega arang ko'ndirib,
Yo'qotib boryapman oniy damlarim...



TASVIR

Qarang, ufqda oy to'ldi – g'arib.
 ohlaridan shafaq qizardi.
 Shom taftidan iliq, mung'ayib,
 bolashamol har yon esardi.
 Telbalandi ona tabiat,
 quyosh g'arbiy manziliga qaytdi.
 Qora libos kiyib adirlar
 yana g'amgin qo'shig'in aytdi.
 Orolanib baqa suvloqda
 chorlar milyon oshiqclarini.
 Taloto'pda o'ynagan qushlar
 ichayapti tunning g'amini.
 Osmon yetti parisi – hulkar
 toq burjida aylanib yurdi.
 Olislarda daydigan itlar
 oy nuriga cho'milib hurdi.
 Xarobada boyqush hukmidan
 qo'rquv har yon tarqalib ketdi.
 Yaproqlari to'kilishidan
 daraxtlarga vahima yetdi.
 Atrgulning g'uncha labidan
 shabnam to'yib bo'salar oldi.
 Oppog, to'lin husnini maqtab,
 oy dilimga hayajon soldi...

RADDIYA

Daryo sohilida o'tirdim uzog,
 o'yladim ming yillik xayollar raqsini.
 To'lqinlar sohilni yuvmoqda, biroq
 ko'rinmas ko'zdagi xayolchan aksim.
 Ko'rinmas sochimni o'ynagan yellar,
 qumloqda vujudim cho'kmoqda tabiiy.
 Maysalar samoga uzatar qo'llar,
 xarsanglar o'y surar avliyo kabi.
 Ko'piklar mavjlanar dalli daryoda,
 oqimlar oqimga qarshilab suzar.
 Tobora hayratim bo'lar ziyoda,
 tobora shamollar ko'nglimni ezar.
 Butalar shoxiga ilingan mezon
 harir pardasini turar o'ynatib.
 Turib ketmoqlikka topolman imkon,
 sohillar qo'ydi-ku meni o'ylatib.
 O'ylayman, ko'z ko'rmas yo'llar-da jimdir,
 ko'ksimga daryoday quyilar g'ashlik.
 Parishon holimni so'rasa kimdir,
 daryodan qilyapman ko'chirmakashlik...

NIL TO'FONI

...O, o'sha vodiyning xurmozorlari,
 Nilning sohilida o'ynagan qumlar.
 Mavlangan daryoning oh-u zori'lari,
 yag'rini shamolni ko'rmagan qullar...
 Tosh bosar yelkasin, qobirg'alari
 zil-zambil xarsanglar yuklanar zimdan.
 Mehnatda qorayib borgani sari
 najot tilamoqni bilmaydi kimdan.
 Osmonga tirmashgan ehrom changlari
 yoshli ko'zlariga balqigan oydek.
 Hukmdor Fir'avning burg'u, zanglari
 basma-bas chalinar sharqiroq soydek.
 Qirg'oqda chayqalgan xurmo barglari
 qaynoq kun taftining hovurin bosib
 Nilning to'qinlangan inju-zarlari
 tog'larning qo'ynidan kelmogda oqib...
 Minglagan millardan minglab irmogda,
 o'zani dunyoni oqizgan Nilda,
 ha, o'sha ko'zlardan juda yiroqda,
 Ehromlar evrilib borar ming yilda.
 Quturgan to'fonning halqob suvlari
 izdihomin buzar qadim yo'llarning.
 Xarsangga aylangan qumning zarlari
 Ruhiga singiydi majruh qullarning...

QAYTISH

Bir kuni yoningdan ketaman daytib,
 keyin tushlaringda bo'laman mehmon.
 Sohira she'rlardan qo'shiqlar aytib,
 Ro'yoga aylanib ketaman, ishon!
 Bir kuni samoga talpinar qushdek,
 koinot qa'riga cho'kadi ruhim.
 Xotiram sovutar qahraton qishdek,
 qaynoq hisslaringni quchar anduhim...
 Bir kuni o'zim ham kutmagan onda
 poyoniga yetar umr yo'llarim.
 Qo'rqoqlar g'uluvga ketgan zamonda
 Osmonga o'rlaydi botir qo'llarim.
 Bir kuni tashvishga burkangan jabal
 erksevar oyog'im qo'yganda mixlab,
 bosh olib ketaman, ha, o'sha mahal
 yulduzlar sachratib, yuraging tig'lab.
 Bir kuni O'ziga yetgayman tamom...
 Kechir, oson emas, barini aytish...
 Shoshilib ketaman Haq vasli tomon,
 bir kuni keladi eng buyuk qaytish...

SAVOL

O'sha bizni hech kim eslamagan tun,
qayda deb bir kimsa so'rmagan oqshom
umr yo'llariga qaytarmi bir kun,
qaytarmi botinga ilohiy ilhom?

Qaytarmi, nargisrang lahzalar g'ug'on,
qaytarmi hislarning mavjli damlari?
Muattar bo'yingga burkanib jahon,
arirni qalbimdan sog'inch g'amlari?

Qaytarmi charog'on yulduz raqsida
entikkan nafasing badihalari,
Qaytarmi ko'zimning rangli aksida
nilufar yuzingning sahifalari?

Qaytarmi bir lahza mastlik vujudga,
mehrning shukubi yog'armi sharros?
Bir kecha umrimning yarmiday tunda
qaytarmi epkinday nozik ehtiros?

Titroqlar qaytarmi, lojuvard osmon
zarafshon nurlari qaytarmi badar?
O'sha tun qaytarmi, moliki zamon
bizlarni yashatsa mahsharga qadar?..

O'sha bizni hech kim izlamagan tun,
qayda deb bir kimsa so'rmagan kecha...
Mana, yashayapman, yurakkimam xun,
yashayolsam bo'ldi o'sha kungacha...

TADORIK

Salqinlab bormoqda avgust tonglari,
Quyosh ham tobora kechroq uyg'onar.
Eslatib kuzakning ma'sum onlarin,
Shamollar telbavor ruhda to'lg'onar.

Samoda bulutlar saf tuzar tinmay,
Ulug' bir safarga chog'lanar lashkar.
Sayroqi qushlarga parvo ham qilmay,
Kuz sori otlar yashil daraxtlar.

Jilg'alar jildirab oqmoqda sokin,
Ekinzor oralab barokat tarar.
Turralar janubga ko'z tikar sekin,
Chanog'lar shoyidan ro'molin o'rar.

Kitobin varaqlar mo'ysafid chinor,
Ming yillik shoxlari aqlidan ozar.
Avgust tonglarida rayhonlar qator,
Jannat iforidan nomalar yozar.

Salqinlab bormoqda avgust tonglari...

SAYYOD

Fasllar almashdi,
o'zgardi nomlar,
o'zgardi dunyoning rang-u tuslari.
Bizlarni qo'lsagan ko'p izdihomlar
yoz bilan xo'shlashdi,
kirdi kuzlari...
Endi shamollarning sarxush qanoti
to'rt yonga telbavor sarosar kezar.
Endi bulutlarning yalovsiz dodi
o'zini eng kuchli zobitday sezar.
Endi tunlarimga qo'shilar tuning
tonglari kechikkan sokin lahza.
Yaproqlarni o'pgan xazonrez kunning
sarg'ayar tobora yam-yashil sasi...
Olsilab uchadi endi turnalar,
olislar samoning sarhadlaridan.
Mezon ipaklari harir yo'rg'alar
joy olib terakning sarvqadlaridan.
Endi olislayman o'zimdanda o'zim,
kuzakning bag'rida o'zinga yotman.
Saydim – nigohlaring,
shikorim – so'zim,
Endi hislarimni quvar sayyodman...

O'YIN

... "Bir o'yin o'ynaymiz", – deding ohista,
mayin tabassurning labingga inib.
"Qanday o'yin?" dedim,
jilmayib asta,
milyon ehtimollar boshimga qo'nib...
"Yo'l bo'yi gapirmay ketamiz, tokim,
kim biror so'z desa, yutqazar", deding...
Shu lahza, nigohim qaratib sokin,
"Ko'rasan, baribir yutaman", dedim...
Na sen gapirarding,
na men so'ylardim,
shitirlab sinardi xazonlar jonsiz.
Bir ma'sum she'r haqda tinmay o'ylardim,
avtolar o'tardi ko'chadan sonsiz...
Sekinroq yurardim, qadamim poylab,
sen ham sekinlaring gapirmayin jim,
Yuradik o'rtada bir ipni boylab,
bir Xudodan o'zga ko'rmasdi hech kim...
Tobora yaqinroq edi manzillar,
tobora yaqinroq edim zafarga.
Seni chalg'itardi yo'l bo'yi gullar,
yo'l bo'yi o'xsharding o'zing ham gulga...

Nogahon aksirdim, bu menga odat,
jim tura olmading odating qo'zib.
Shu onda tanangni tark etib rohat,
"Sog' bo'ling!" – deding-u,
qo'yding yutqazib...

Manzillar ayrildi,
ayrildi yo'llar...
Ayrildi jim ketgan ko'chalar yodi...
Endi samolarga uzatib qo'llar,
ko'ksini tark etar achchiq faryodim...

Jim ketding,
men tinmay gapirib qoldim...
Ongimda zulmatday yopriydi tuman.
Qandayin o'yin bu?!

Eshitmay dodim,
endi sen g'olibsan,
endi mag'lubman...

Endi xayolimdan o'tgani she'rdir,
endi so'zlarimda aks etar bayot.
Endi jim turmoqqa undaydi taqdir,
endi o'yin o'ynar men bilan hayot...

OROM

Shamollar, ohista tebraning birpas,
Qushlar, chug'uringiz birpas bas qiling.
Suronlar, sukutga do'ning bir nafas,
Jangchilar, bir muddat otishmay turing.

Bir muddat chekining, g'am qayg'ulari,
Ochlik elchilari, bir muddat qoching.
Sokina uyquning bor tuyg'ulari,
Bir muddat oromli bag'ringiz oching.

Masjid pesttoqidan buzilgan g'ishtlar,
Yumshoq parbolishga aylaning bir dam.
Taqdir tikanidan to'kilgan nishlar,
Bir muddat suqilmay turing sizlar ham.

Qiningizga kiring, damlari qaro,
Zolimlar qo'lida qayralgan tig'lar.
Yaqin yo'lamanigiz, vayronzor aro,
Zulmdan charchagan jigarim uxlar.

QANOTSIZ QUSH

Bilaman,
sen hali tug'ilganing yo'q,
bilaman, dunyoviy safaring olis.
Ko'zlaring tubiga yashirib bir cho'g',
pinhon yashayapsan samoda yolg'iz...

Bilaman,
gullarga tashna qalbingda
betinim qirmizi hislaring oqar.
Bilaman, samodan boqishlaringda
sohira mavhumlik jussangga yoqar.

Parvoz qilolmaysan,
chapportlar urib,
tunlari uyqumda ko'rmagan tushsan.
Bilaman,
sen hali tug'ilmay turib,
qanoti qir qilgan
qanotsiz qushsan...

HADIK

Nahot, barglarimni supuradi kuz,
nahotki, xazonlar to'kilar chindan?i
Nahot, yuragimni tilkalar hanuz
mezon shamollari uyg'onib zimdan?i

Nahot qisirlaydi murg'ak shoxlarim,
ildizim kemirar muzlagan suvlar.
Nahotki, qovjirar dilda dog'larim,
sunbula oyiga yiqilib ular?i

Yo, Xudo, deyman-u,
yashil chog'inda
bo'ylagan qo'llarim cho'zib samoga,
nuqralar o'ynagan nuri bog'inda
tinmay topinarman Qodir Xudoga...

Shu lahza huvullab, allaqaylardan
bahorning majolsiz shamoli esar...
Yashirinib yotgan pana joylardan
kuzning kelishini barglarim sezar...

UNUTILGAN TUN

Eslaysanni,
hayotimizda
unutilib ketgan sohira bir tun,
nargisrang bo'ylaring bo'ylab tonggacha
shamollar esidan og'gandi butun.

Eslaysanni,
yoshi ko'zlaring
nigohing tatifidan yongan damlarim.
Sog'inchi ko'zimga surtib so'zlaring,
yuzimda aks etdi ma'sum g'amlarim.

Dunyolar dunyoga o'xshamay ketdi,
o'zimga o'xshamay ketdim tamoman.
Titragan qo'llarim samoga yetdi,
titragan qo'llaring tutgach da'atan.

Sukunat hokimlik qilgandi ming yil,
nigohlar ming yillik subbatin qurdi.
Manzillar butunlay bo'ldi bemanzil,
ko'ksimda nimadir manzilsiz urdi.

Nurli tushga o'xshab ketdi fursatlar,
nilufar raqsiga o'xshardi qalbing.

Unutilib dildan kadar-u'g'amlar,
nilufarday nurga cho'mardi qalbim.

So'nggi bor deganding...
So'nggi bor dedim...
O, o'sha lahzada mingga bo'lindim.
Sirqirab bo'g'zimdan qaynoq hislarim,
otashin sevgimiz og'usin yedim...

So'nggi bor kulgandim,
ul ma'sum kecha,
so'nggi bor kulishing ko'rgandi borliq.
Ko'zing ko'zgusida yotib tonggacha
mehrining soyasida olgandim hordiq...

Eslaysanni,
men hamon o'shal tundaman,
shu tunning ertasi kelmadim tokay.
Tirikligim qoldi o'shal kechada,
o'shal tundan buyon tirik murdaman...

Na oylar ko'ksimdan ololdi dardim,
na yillar bir lahza unutmadi.
Sen-ku yashayapsan unutib, balkim,
O'sha tundan keyin men yasholmadim...

TENGGUNLIK

Buyog'iga kunlarim qisqa,
buyog'iga uzun tunlarim.
Endi uzoq bo'laman Sizdan,
yaqin bo'lar ammo hislarim.

Kuz ko'rmagan moviy darchadan
tong otishin kutaman ilhaq.
Ko'nglim yamab quroq parchadan,
sizga tortiq qilaman beshak.

Sunbulating salqin bag'rida
mezon haqda she'rilar to'qiyman.
Xazon yoqib har bir satrida,
shamol bilan birga o'qiyman.

Qantar og'ar shimol ufqidan,
xira tortar quyosh nurlari.
Qushlar ayro uchar juftidan,
momiqlanar bulut parlari.

Jim kezaman xiyobonlarda
sukunati xayolga cho'mib.
Siz yashagan olis yoqlardan
sog'inch esar vujudim ko'mib.

Talpinaman har bir daqiqa,
Siz tomonga tortar yo'llarim...
Buyog'iga qo'llarim qisqa,
buyog'iga uzun o'ylarim...

NOYABR

Sokin shivirlaydi
men sevgan daraxt.
Yaproqlar shivirlar yanada sokin.
Jilg'alarda oqar zilolday farah,
olamga noyabr bo'lmogchi hokin...

Tong chog'i izg'irin esib shimoldan,
tobora quyoshning taftini kesar.
Shu lahza sog'inching o'tib xayoldan
uvishgan hislarim nelarni sezar?

Esimda
kuzakning sokin kunlari,
sarg'aygan xazonlar bezagan yo'llar.
Esimda
yoshlikning ma'sum damlari,
esimda
sovuqdan muzlagan qo'llar.

Esimda,
shamolning qo'nalg'asida
quloqqa kirmagan so'zlar esimda.
Birgina nigohning darpadasidan
tanamni titratgan ko'zlar esimda.

Esimda,
yo'lingga intizor chiqib,
soatim chirqini eshitganlarim.
Esimda,
kunlarim yillarday o'tib,
kuzakni baxtiyor his etganlarim.

Bugun o'rtamizda ayriliq hokim,
olis xotiralar baxsh etar farah.
Sog'inchi noyabr o'tguncha tokim,
sokin shivirlaydi
biz sevgan daraxt...



OQSHOM

Dekabrning sokin oqshomi,
oy fusunkor taratar yog'du.
Bulut goho qoplar samoni,
goho oyga qaratar ko'zgu...

Yupun kiygan, sovg'otgan shamol
yuguradi bog'da huvullab.
G'ichirlaydi chinorlar behol,
govog uyib esnar g'uldirab.

Ko'lmakdagi suv uxlaydi jim,
tortib qo'yar muzli ko'r'pasin.
Mo'ridagi tutun betinim,
ko'kka haydar tunning sharpasin.

Panalarda, zulmat qo'ynida,
oy nuriga qongan tomchilar
maysalarning mudroq bo'yniga
oppoq qirov bo'lib sanchilar.

Sog'inadi takror kumushrang
gor parchasin qahraton zamin.
Eshitlar olisdan arang
daydi itlar uvlab, hurgani...

O'tirarmi ruhim shu damda,
tark etadi issiq xonamni.
Yupun kiygan shamolni haydab,
tashlab ketar titroq tanamni...



ISHQ GULI

Yo'q edi bir paytlar
mendan nom-nishon,
yo'q edi sukutga cho'ngan lahzalar.
Yo'q edi hattoki zamin-u osmon,
yo'q edi dunyoni quchgan narsalar.
Yo'q edi ibtido samovotida
manzilin bilmagan nurafshon nurlar.
Yo'q edi borliqning xayolotida
Isrofil qo'lida mizg'igan surilar.
Yo'q edi zarralar ilvasidagi
bepoyon sarhadda yotgan falaklar.
Yo'q edi bulutlar xilvatidagi
qanoqlarin yoygan oppoq malaklar.
Yo'q edi miysoq ham,
yo'q edi ruhlar,
yo'q edi azalning o'tli damlari.
Yo'q edi bashar ham, yo'q edi jinlar,
yo'q edi oshiqning qayg'u-g'amlari...
Faqat mavjud edi Xoliqi mutlaq,
Mavjud edi faqat Arshning kursisi.
Mehriddan yaraldi jamiyki xilqat,
yaraldi ishq nomli nilufar isi...

MUNDARIJA

Odil Ikrom. Yangi nihol.....	3
Ona tuproq.....	5
Ona adabiyot.....	8
Ochiq kitob.....	9
Onam Gulsunoy adash qiziga.....	10
Arab sahrasi.....	11
Tiriklik.....	13
Uyg'ur kamoni.....	14
Orzu.....	15
Lahza.....	16
Afg'on shamoli.....	17
Zanglagan tig'.....	18
Erk.....	19
Sog'inch.....	20
Opanga maktub.....	22
Daydi kuz.....	24
Beshinchi tomon.....	26
Ma'sum xayol.....	27
So'z yo'li.....	28
Arafa.....	30
Ilk gunoh.....	32
Sham nolasi.....	33
O'g'lim Ismoliga.....	34
Qalam nidosi.....	35
Hazrat.....	36
Buzrukovor.....	38
Hukm.....	40
Kel.....	41
Yo'l.....	43
Kofarnihon armoni.....	44

She'r faryodi.....	47
Armon.....	48
Parcha.....	50
Musofir.....	52
Uzlat.....	53
Subbardosh.....	55
Isiq.....	56
Iqror.....	58
Yolg'izlik.....	59
Daryodil.....	61
Fevral tongi.....	62
Fevral o'ylari.....	64
Ko'klam.....	65
Uyg'onish.....	66
So'nggi kun.....	68
April ibodati.....	70
Bolalik.....	71
Tasvir.....	74
Raddiya.....	75
Nil to'foni.....	76
Qaytish.....	77
Savol.....	78
Tadotik.....	79
Sayyod.....	80
O'yin.....	81
Orom.....	83
Qanotsiz qush.....	84
Hadik.....	85
Unutlgan tun.....	86
Tengkunlik.....	88
Noyabr.....	89
Oqshom.....	90
Isiq guli.....	90

-1554-

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
 O'QUV VA OYATLARI CHIRCHIQ
 YOSHKENT PEDAGOGIKA INSTITUTI
 AXBOROT RESURS MARKAZI

3.2.62.80m

UO'K: 821.512.133-1(081)

KBK: 83.3(50'zb)

K 64

K 64 Komilov, Orifon.

Xayol raqsi [matn]: *she'rlar* / O. Komilov.

– Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2020. – 96 b.

Adabiy-badiiy nashr

ORIFON KOMILOV

XAYOL RAQSI

She'rlar

Muharrir: D. Mingboyeva

Badiiy muharrir: F. Ermatov

Sahifalovchi: N. Soatov

Musahhih: Sh. Hakimova

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
"ADABIYOT NASHRIYOTI" MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043.27.01.2020.
100129, Toshkent shahri, Markaz-15, 1/90.

© (98) 128-30-04.

Bosishga 20.12.2020-yilda ruxsat etildi:

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90 /¹⁶

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 2,75.

Adadi: 5000 nusxa. Buyurtma №374.

"AZMIR NASHR PRINT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.

QO'G'AZ
TOSHKENT
100200
ADHAM RAHMAT KO'CHASI, 10-UY
"AZMIR NASHR PRINT" MCHJ